



## OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARING ILMIY TADQIQOT ISHLARI

**Turakulova Feruza Aminovna**

*Qo`qon davlat pedagogika instituti katta o`qituvchisi*

**Raxmatova Umidaxon Baxtiyor qizi**

*Qo`qon davlat pedagogika instituti 01/22-MTPP talabasi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada ilmiy-tadqiqot mohiyati va oliv ta`limda talabalarning ilmiy-tadqiqotlarini tashkil etish mazmuni aks ettirilgan

**Kalit so`zlar:** ilmiy-tadqiqot, oliv ta`lim, fan, talaba, mustaqil ta`lim

Ilm olish nihoyatda murakkab, sermashaqqat va uzoq davom etadigan ish. Xalqda "Ilm – igna bilan quduq qazishdir" deb bejiz aytilmaydi. Ilm olish soddadan murakkabga qarab to'xtovsiz o'sib, takomillashib boradigan, ayni vaqtda juda qiziqarli, eng asosiysi, jamiyat uchun nihoyatda kerakli ish. Ilm olish, ilmni egallash jarayoni insondan katta kuch va iroda talab etadi.

Jahon ilm-fani tajribasida turli ilm sohalari va ularni tadqiq qilish metodlari, yo'naliishlari haqida alohida maktablar bo'lgan, ular muntazam o'zgarib, rivojlanib borgan. Hozir ham turli fanlar, zamonaviy yo'naliishlar mavjud. Ushbu fanlarni o'rganish, tadqiq qilish yangi kashfiyotlarni yuzaga keltiradi, ularni hayotga tatbiq etish mamlakatni taraqqiy ettiradi, jamiyat, insonlar hayotini yanada farovonlashtiradi. Ayniqsa pedagogika turkumidagi fanlarni o'rganish.

Pedagogika turkumidagi fanlarning imkoniyatlari bugungi kunda jamiyatning malakali pedagog kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini qondirishda asosiy rol o'yndaydi.

Pedagogik turkum fanlari ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlash, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtaсидаги munosabatlarni qaror toptirish, talabalarda barkamollik sifatlarini shakllantirish borasida ham katta imkoniyatlarga ega bo`lib, bu imkoniyatlar quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirish pedagogika fanining ham asosiy maqsadi ekanligi;

- pedagogika fanining mazmuni ham har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda uning aqliy, nafosat va jismoniy rivojlanishi, ijodiy qobiliyatlarining namoyon bo'lishi, unda insonparvarlik munosabatlarini tarkib toptirishga yordam beruvchi zarur shart-sharoitlar yarata olishi;

- ta'lim va tarbiya qonuniyatları hamda tamoyillari birligi, o'zaro uyg'unligini ta'minlash asosida barkamol shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy maqsadni to'la amalga oshirish mumkinligi. Su bois pedagogika turkumidagi fanlar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini ham olib boorish maqsadga muvofiqdir.

Oliv ta`lim tizimida ilmiy tadqiqot faoliyati bilan tanishtirishdan asosiy maqsad talabalarda zamonaviy jamiyatda fanning roli va o'rni haqida tizimli tasavvurni hosil qilish, shuningdek ularda ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Bunda talabalar hozirgi zamon fani, ilmiy bilish, ilmiy tadqiqot



metodologiyasi asoslari, ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashni tashkil qilish va boshqarish tamoyillari bilan tanishtiriladi, ularda ilmiy tadqiqot olib borish metodlari va metodikalari haqida tushunchalar shakllantiriladi; ilmiy ishlarni til va uslub talablari asosida rasmiylashtirish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Pedagogik ta’lim yo‘nalishlarida ta’lim olayotgan talabalar ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanish jarayonida pedagogik sohada mavjud asosiy muammolarni tahlil qilishni, pedagogik tizimlarga doir tadqiqotlarning xususiyatlari, ilmiy tadqiqotlardagi turli yondashuvlar va qarashlarga munosabat bildirishni, tadqiqot usullari bilan ishlashni o‘rganadilar

Oliy ta’lim tizimida talabalar ilmiy tadqiqot ishlariga birinchi kursdanoq referat, kurs ishi yozish, mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish orqali jalb etiladi. Pedagogika turkum fanlaridan bo`lgan ijtimoiy pedagogika fanini o`qitilishida ham 120 saat mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishga ajratilgan. Shuningdek, oila pedagogikasi fanidan nam 160soat mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishga ajratilgan.

Talabalar tomonidan har ikki fan ijtimoiy pedagogika va oila pedagogikasi fanlari bo`yicha rejorashtirilgan mustaqil ta’lim mavzulari bo`yicha taqdimot, tayyorlashlari, keys ishlab chiqishlari, kazuslarni yaratish ilmiy tadqiqotlarning kichik bir ko`rinishidir

Talabalik yillarining dastlabki bosqichidanoq ularni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etishdan asosiy maqsadimiz kelajakda malakali mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy izlanishlar olib borishda ma’lum bir ko‘nikmalar hosil qildirish, tajriba orttirtirish, manbalar, ilmiy adabiyotlar bilan kengroq va chuqurroq tanishtirish, dunyoqarash va tarixiy mushohadalarini kengaytirish, keyinchalik qaysi sohada ishlashilarindan qat’iy nazar, qiyosiy tahlil ko‘nikmasiga, tanqidiy xulosalar chiqara olishlarining va yillar davomida ilmiy kashfiyotlar yartishga undashdan iboratdir.

**Xulosa:** qilib aytganda, har qanday ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi obyektni o‘rganish, yangi natijalarni oldindan ko‘ra bilib, hodisalarining kelgusidagi rivojini bashorat qilish, dalillarni aniqlash va tahlil qilish, tasniflash va umumlashtirish, kashf qilingan ilmiy yangiliklarni aniqlab, amaliy tavsiyalar berishdan iborat. Aniq maqsad va qat’iy reja asosida olib borilgan, zamonaviy usul va vositalar bilan ta’minlangan, aniq hisob-kitoblar asosida olib borilgan tadqiqotgina tabiat va jamiyatdagি obyektiv qonuniyatlarni ochish va teran bilishga imkon yaratadi.

### **FOYDALAILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Бахтина И.Л., Лобут А.А., Мартюшов Л.Н. Методология и методы научного познания/Учебное пособие. – Екатеринбург: УГПУ, 2016.
2. Илмий-тадқиқотчилик фаолиятига тайёргарлик асослари / Ўқув-услубий кўлланма / Б.Ю.Ходиев, А.И.Бекмуродов, М.Р.Болтабаев, Л.В.Голиш, О.Б.Гимранова. – Т.: Экономика, 2010. – 138 б.
3. Колмогоров Ю.Н., Сергеев А.П., Тарасов Д.А., Арапова С.П. Методы и средства научных исследований / Учебное пособие.– Екатеринбург: Изд. Уральского ун-та, 2017.